

AHOLIGA IJTIMOIIY XIZMATLARNI TASHKIL QILISHDA SUN`IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH

Norjigitova Xumora

*Samarqand Davlat Universitetining Kattaqo`rg`on Filiali
"Aniq va Tabiiy fanlari" fakulteti "Ijtimoiy ish" yo`nalishi
21-17-guruh 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun`iy intellekt va uning imkoniyatlarini o`rganish haqida va aholining barcha zaif qatlamlariga ya`ni nogiron shaxslarga, keksalarga, kam ta`minlangan oilalarga, yoshlarga, ijtimoiy xizmatlar ko`rsatishda sun`iy intellektdan qanday foydalanish haqida ma`lumotlar beriladi.

Kalit so`zlar: Aholi, qatlam, ijtimoiy xizmat, sun`iy intellekt, nogiron, nogironlik pensiyasi, qarilik, qariyalar, ijtimoiy himoya, muhtoj, ijtimoiy ishchi, keksalik.

Abstrakt: This article provides information on the study of artificial intelligence and its potential, and how to use artificial intelligence to provide social services to all vulnerable groups of the population, such as persons with disabilities, the elderly, low-income families, and youth.

Keywords: Population, class, social services, artificial intelligence, disabled, disability pension, old age, elderly, social protection, needy, social worker, old age

KIRISH: Sun'iy intellekt - bu aqlli kompyuter tizimlarini, ya'ni biz an'anaviy ravishda inson ongi bilan bog'laydigan imkoniyatlarga ega bo'lgan tizimlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan informatika sohasi hamda tilni tushunish, o'rganish, fikr yuritish, muammolarni hal qilish va boshqa muammolarni hal qila olishdir". Keyinchalik, bir qator algoritmlar va dasturiy ta'minot tizimlari sun'iy intellekt deb atala boshlandi, ularning ajralib turadigan xususiyati shundaki, ular ba'zi muammolarni hal qilish haqida o'ylayotgan odam kabi hal qila oladi. Sun'iy intellekt" bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasi - bu miya ishini tushunishga intilish, inson ongining sirlarini ochish va inson aqlining ma'lum darajasiga ega mashinalar yaratish muammosi. Intellektual jarayonlarni modellashtirishning asosiy imkoniyati shundan kelib chiqadiki, miyaning har qanday funktsiyasi, cheklangan miqdordagi so'zlardan foydalangan holda qat'iy bir ma'noli semantikaga ega tilda tasvirlangan har qanday aqliy faoliyat printsiplari ravishda elektron raqamli kompyuterga o'tkazilishi mumkin. Sun`iy intellekt- bu robotlar va boshqa sun`iy aqilli mavjudotlarga xos bo`lgan xususiyat hisoblanadi. Sun`iy intellekt- informatikaning alohida sohasi bo`lib, odatda inson ongi bilan bog`liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o`rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va hu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug`ullanadi. 1990- yillarda sun`iy intellekt taraqqiyotida yangi sahifa

ochildi. Sun'iy intellekt kompyuterlarga o'zlarining tajribalarini o'rganish, berilgan parametrlarga moslashish va ilgari faqat odamlar uchun mumkin bo'lgan vazifalarni bajarish imkonini beradi. Sun'iy intellektni amalga oshirishning ko'p hollarida kopyuter shaxmatchilaridan tortib uchuvchisiz transport vositalarigacha- chuqur o'rganish va tabiiy tillarni qayta ishlash imkoniyati juda muhimdir. Sun'iy intellektning rivojlanish tarixi. Sun'iy intellekt" atamasi 1956 yilda paydo bo'lgan, ammo bugungi kunda SI texnologiyasi ma'lumotlar hajmini ko'paytirish, algoritmlarni takomillashtirish, hisoblash quvvatini va ma'lumotlarni saqlash vositalarini optimallashtirish fonida haqiqiy mashhurlikka erishdi. O'tgan asrning 50-yillarida boshlangan SI sohasidagi birinchi tadqiqot muammolarni hal qilish va ramziy hisoblash tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan edi. Aksincha, sun'iy intellektni rivojlantirish ushbu texnologiyaga iqtisodiyotning barcha sohalarida haqiqiy foyda keltiradi. Sog'liqni saqlash, chakana savdo va boshqa sohalarda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish misollari quyida keltirilgan. Antik davr Shunday qilib, 20-asrning o'rtalarida sun'iy intellekt haqidagi ilmiy bilimlarning barqaror maydoni shakllantirildi, ammo bu yo'nalishda harakatlar qadimgi va o'rta asrlarda ham amalga oshirilgan. Sun'iy intellekt haqidagi tasavvur va bu sohadagi izlanishlar — «aqliy mashinalar» ishlab chiqarishga ilmiy yondoshish birinchi bo'lib Stanford universitetining (AQSH) professori Djon Makkarti tashabbusi asosida 1956-yili tashkil topgan ilmiy to'garakda paydo bo'ldi. Intellekt» so'zi lotincha «intellectus» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u bilish (aniqlash), tushunish yoki faxmlash (aql) ma'nosini beradi. «Intellekt» so'zini aniqlovchi, psixologlar tuzgan uchta tushunchasini (Katta sovet entsiklopediyasi va Vesterning amerika lug'atidan olingan) keltiraman. Bu tushunchalar «intellekt» tushunchasi mazmunini aniqlash uchun yordam beradi. Intellekt — fikrlash qobiliyati, ratsion`al bilish va shunga o'xshash. Umumiy xolda esa fikrlash, shaxsni aqliy rivojlanishi sinonimi bo'lib xizmat qiladi. Intellekt (aql) — o'z xulqini sozlash yo'li bilan xar qanday (ayniqsa yangi) xolatga yetarli baxo berish qobiliyati.¹ Intellekt — turmushdagi dalillar o'rtasidagi o'zaro bog'liklikni tushunish qobiliyatidir. Bu qobiliyat belgilangan maqsadga erishishga olib boruvchi xarakterlarni ishlab chiqish uchun kerak bo'ladi. Yuqorida aniqlangan «intellekt» tushunchasidan shunday xulosa chiqarish mumkinki, ya'ni intellekt faqat insonlarga tegishli va odam aqliy qobiliyatining o'ziga xos o'lchovidir. Psixologlar shunday maxsus usullar yaratdilar, bu usullar yordamida tajriba orqali odamning intellektual (aqliy) darajasini aniqlash mumkin bo'ldi. Natijada shu narsa aniqlandiki, intellektning individual darajasi o'rtasidan surilishi odamning fizik imkoniyatlari darajasi kabidir. Suniy intellektni yaratish to'g'risidagi nazariy izlanishlar XIII asrda yashagan ispan faylasufi, matematiki va shoir bo'lgan Raymond Lulliy har xil masalalarni yechadigan

¹ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sun%CA%BCiy_intellekt.

mexanik mashina yaratishga xarakat qilgan. XVIII asrda yashagan Leybnits va Dekart bir - biridan alohida universal til taklif etishgan. Lekin, asosan sun'iy intellekt ilmining yo'nalishi sifatida rasmiy kelib chiqishi XX asrning 40 yillariga to'g'ri keladi, ya'ni EHM yaratila boshlagandan so'ng. Shu paytda Norbert Viner kibernetika faniga asos soladi. 1969 yilda Vashingtonning Dartsmut kolledjida sun'iy intellekt bo'yicha 1- Xalqaro birlashgan konferentsiya bo'lib o'tadi va "sun'iy intellekt" termini qonunlashtiriladi.

Sun'iy intellektning asosiy yo'nalishlari:

- Neyrokibernetika;
- "Qora yashik (quti)" kibernetikasi. Sun'iy intellekt nima

Sun'iy intellekt - bu aqlli kompyuter tizimlarini, ya'ni biz an'anaviy ravishda inson ongi bilan bog'laydigan imkoniyatlarga ega bo'lgan tizimlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan informatika sohasi hamda tilni tushunish, o'rganish, fikr yuritish, muammolarni hal qilish va boshqa muammolarni hal qila olishdir".²

Sun'iy intellekt (AI) - aqilli tizim sifatida ishlaydigan kompyuter algoritmlari va dasturlarini yaratish fan va texnologiyasi: tajribaga asoslangan ma'lumotlarni o'rganish va saqlash, mavhum tushunchalarni baholash va qo'llash, olingan bilimlardan ta'sir qilish uchun foydalanish. muhit. Sun'iy intellekt 2 turga bo'linadi: **zaif va kuchli**. Kuchli sun'iy intellekt cheksiz sohalarda har qanday muammolarni hal qila oladi. Kuchli sun'iy intellektni tasavvur qilish uchun "Temir odam" filmidagi Toni Starkning yordamchisi Jarvisni o'ylab ko'ring. Bugungi kunda bunday AI ni amalga oshirishning iloji yo'q va uni yaratish g'oyasi sof utopiya sifatida tan olinadi.

Aholining ijtimoiy xizmatlarga muhtoj qatlamlari- keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, ayollar, oilalar va hokozalar tashkil etadi. Nogironligi bo'lgan shaxslarni oladigan bo'lsak- ijtimoiy yordam va himoyaga, jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan birga teng to'liq va samarali ishtirok etish uchun shart- sharoitlar yaratilishiga muhtoj barqaror jismoniy, aqliy, sensor(sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxslar hisoblanadi. Hozirgi kunda sun'iy intellekt jadal taraqqiy etib borayotgan sharoitda nogironlarga turli xil ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilmoqda. Nogironlar uchun sun'iy intellekt sifatida hozirda 24V 250W li elektrli nogironlar aravachasi tashkil etilgan. Bu nogironlik aravachasining Afzal tomaonlari- atrof-muhitni muhofaza qiladi, zaryadlash qurilmasiga ega, yetarli quvvatga ega, haydashga qulay hisoblanadi. Undan tashqari nogironlar uchun yana ko'targich liftlari yaratilgan. Bu liftlarning xususiyatlari chuqurni talab qilmaydi va to'g'ridan- to'g'ri yerga o'rnatiladi. Nogironlar aravachasi liftining afzalliklari nogironlar foydalanishlari uchun qulay shaklda tashkil etilgan. Ya'ni u liftga nogironlar uchun zarur bo'lgan tugmachalar qo'yilgan. Bu sun'iy intellekt imkoniyati cheklangan nogironlar uchun

² <https://cyberleninka.ru/article/n/sun-iy-intellekt-va-uning-imkoniyatlari>

juda ham muhim hisoblanadi.³ Nogironlar uchun bundan tashqari eshitish apparatlari, aravachalar, ortopediya buyumlari, rentgen kabi bir qancha sun`iy intellektlardan foydalanilmoqda. Nogiron shaxlardan tashqari keksalar ham bizning jamiyatimizda ijtimoiy xizmatlarga muhtoj hisoblanadi. Ular jamg`arma mablag`lari hisobidan:

- Yolg`iz yashaydigan keksalar uchun har yili bir marotaba sanatoriyalar bepul yo`llanmalar berilishi

- Sharoiti og`ir va kam ta`minlangan keksalarga shifokorlarning retseplariga asosan 3 oylik ehtiyojdan kelib chiqib, dori vositalari, tibbiy va maxsus protez-ortopediya moslamalari olib berilishi hamda jarrohlik amaliyotlarining harajatlari qoplanishi.

- Og`ir tashxisli kasallikka hamda nogironligi bo`lgan keksalarga shifokorlarning retseplariga muvofiq, 3 oylik ehtiyojdan kelib chiqib, dori vositalarining 50% gacha bo`lgan summasi kompensatsiya qilinishi.

- Ayniqsa keksalarning madaniy hordiq chiqarishlari va salomatliklarini mustahkamlash uchun jismoniy faolligini moddiy jihatdan ham qo`llanishi juda ko`p mamlakatlar havas qilsa arzigulik ibratli amaliyot hisoblanadi.⁴

Qarilik, keksalik (qarish) — organizm hayotining yoshga bog`liq muayyan bir davri, muqarrar ravishda yuz beradigan jarayon. A`zo va sistemalarda o`ziga xos o`zgarishlar ro`y berib boradi, bu esa asta-sekin organizmning hayotga moslashuv imkoniyatlari susayishiga olib keladi. Odamlarning Qarilik davri 75 yoshdan keyin boshlanadi (90 yoshdan oshgan kishilar uzoq umr ko`ruvchilardir), bu fiziologik Qarilikdir bunda aqliy va jismoniy quvvat, ma`lum ish qobiliyati, xushchaqchaqlik va atrofga qiziqish saqlanadi. Turli noxush tashqi va ichki ta`sirrotlar barvaqt yoki patologik Qarilikga olib keladi. Odatda, Qarilikning dastlabki belgilari odamda yetuklik davridan (shartli ravishda 60 yoshdan) so`ng boshlanadi. Lekin aslini olganda, Qarilik organizmning o`sishi va rivojlanishi to`xtagandan keyin sezila boshlaydi. Mas, 30—35 yoshlarda biologik jarayonlarning faollik darajasi pasaya boshlaydi da organizmning moslanuvchanlik va tiklanish imkoniyatlari susayadi, bu — kasalliklarning avj olishiga va ularning ancha og`ir o`tishiga sabab bo`ladi.⁵ Shuning uchun kasallikning oldini olish barvaqt qarishga yo`l qo`ymaslikka yordam beradi. Hozirgacha Qarilik sabablari to`g`risida aniq fikr yo`q, lekin u bir qadar irsiyatga ham bog`liq. Ba`zi oilalarda uzoq umr ko`ruvchilarning nasldannasiga o`tganligi ma`lum. Ayollarda Qarilikning erkaklarga nisbatan kechroq kuzatilishi genetik apparatning xususiyatlariga va boshqalar omillarga (mas, ayollarda chekish, spirtli ichimliklar ichish kam) ham bog`liq bo`lishi mumkin. Ma`lumki, Qarilik sur`ati turlicha bo`ladi: ba`zilarda 75—80 yoshda, hatto ancha keyin ham turli ishlar bilan shug`ullanish uchun

³ <https://apteka.uz/uz/good/invalidnye-kolyaski>

⁴ <https://spbhttp.ru/uz/socialnaya-rabota-s-pozhilymi-i-starymi-lyudmi-deontologiya-socialnoi-raboty/>

⁵ <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Qarilik>

kuchquvvat va imkoniyat bo'lad. Biroq yosh o'tishi bilan barcha odamlarda mehnat qobiliyati pasayadi, salga toliqadi. Shu sababli, yosh o'tganda kishining ahvoli yaxshi bo'lsa ham og'ir ish qilmaslik kerak. Qarilik davrida ovqatlanish, mehnat va dam olish rejimiga qat'iy rioya etish, uxlashdan oldin ozroq sayr qilish, chiniqish muolajalari va boshqalar katta ahamiyatga ega. Biroq chiniqish muolajalari turini va muddatini, albatta, vrach bilan maslahatlashib olgan ma'qul. Aytib o'tilganlarga amal qilish barvaqt Qarilikning oldini oladi va uning maromida kechishiga, shuningdek, odamning jismoniy va ma'naviy imkoniyatlarini iloji boricha saqlab qolishga olib keladi. Qarilik sabablari va sirasrorlarini gerontologiya, ularda kechadigan kasalliklarni esa geriatriya fani o'rganadi.⁶

Keksalar bilan ijtimoiy xizmatlar olib borishda sun'iy intellektdan foydalanishning bir usuli bu shaxsiylashtirilgan parvarish rejalarini taqdim etishdir. Sun'iy intellektga asoslangan dasturiy ta'minot mijozning shaxsiy extiyojlari va afzalliklarini tahli qilib, ularning o'ziga xos holatiga moslashtirilgan parvarishlash rejasini yaratish mumkin. Bu mijozlarga kerakli yordamni samarali tarzda olishlarini ta'minlashga yordam beradi. Sun'iy intellekt keksa odamlarning mustaqil yashashiga yordam beradigan yangi texnologiyalarni ishlab chiqishda ham qo'llaniladi. Masalan, keksalarga sun'iy intellekt yordamida robotlar uy ishlariga yordamlashish, ovqat pishirish, xonalarini yig'ishtirish, keksalarga qarash, ularga o'z vaqtida dorilarini berish, qon bosimlarini o'lchash kabi vazifalarini bajarishda hamroh bo'lishlari va yordam berishlari mumkin. Bu g'amxo'rlik qiluvchilarining yukini kamaytirishga yordam beradi va qariyalarga o'z uylarida uzoqroq qolish umrlari uzoq bo'lishlariga imkonini beradi. Keksalar o'zlarining yumushlarini bajara olmasliklari sababli ularga sun'iy intellektdan foydalangan holda ularga robot yordamchilar, maxsus qariyalar uchun kerakli buyumlar ishlab chiqilmoqda.

Hozirgi kunda aholining barcha toifalariga keksalarga, nogironligi bo'lgan shaxslarga va hokozalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi rivojlanmoqda. Shu jumladan sun'iy intellekt sohasi ham insonlar hayot sifatini yaxshilash ularga yordamchi kuch sifatida ishlab chiqilmoqda. Masalan, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun elektrli aravachalar, eshitish uchun moslamalar, protez-ortopediya buyumlarini yaratmoqda, ularni vazifasini bajarish uchun robotlar, keksalar uchun uy-ro'zg'or faoliyatiga yordamlashuvchi, ovqat qilishiga qarashuvchi, ularni sog'liqlari uchun

⁶ <https://avitsenna.uz/keksalik-oz-nima/>

yordam beruvchi, dori vositalarini o`z vaqtida berilishdan ta`minlash, qon bosimlarini o`lchash uchun robotlar yaratilmoqda. Bu rivojlanishning bir ko`rinishi hisoblanadi. Biz ijtimoiy ish xodimlari ham shu aholining zaif qatlamlariga har tomonlama yordam berish asosiy vazifamizdir.

XULOSA:

Sun'iy intellektni atrofimizdagi turli xil ilovalarda topish mumkin. Sun'iy intellektga biznes ehtiyoji ham ortib bormoqda. Har kuni biz kundalik hayotimizda sun'iy intellektning bir nechta qo'llanilishiga duch kelamiz. Ushbu ilg'or texnologiyani sayyoramizning har bir qismida topish mumkin. Har bir biznes strategiyasi, taksi xizmatlaridan tortib, internet-marketing va ko'ngilochar platformalargacha yetkazib berish xizmatlari, sun'iy intellektni o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sog`liqni saqlashdagi sun`iy intellekt _Vikipediya <http://uz.wikipedia>
2. Yangi Ozbekiston Strategiyasi -Toshkent."O`zbekiston" nashriyoti, 2021.213-bet.
3. Ijtimoiy ishga kirish o`quv-uslubiy majmua.Samarqand-2021.86-bet
4. Odamlar va robotlar raqobati-xabar.uz <http://xabar.uz/uz/tahlil/odamlar-va-robotlar-raqobati>
5. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 24.01.2020.<http://uza.uz>
6. <https://spbhttp.ru/uz/socialnaya-rabota-s-pozhilymi-i-starymi-lyudmi-deontologiya-socialnoi-raboty/>
7. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Qarilik>
8. Пантелеева Т.А., Арустамов Э.А., Максаев А.А. Возможности искусственного интеллекта в управлении кадровыми ресурсами в условиях свободного предпринимательства // Интернет-журнал «Отходы и ресурсы», 2019 №3,